

Saylov Tizimi: Dunyo Tajribasi Va O'zbekiston

Qodirova Go'zal Qodir qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Saidov Shoxruxxon Muzaffarovich

O'zbekiston Milliy universiteti

"Huquqiy fanlar" kafedrası mudiri,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada saylov tizimlari va ularning o'ziga xosliklari, jahon tajribasi va O'zbekistonda saylovlarning qay tartibda o'tkazilishi, mamlakatimizda majoritar saylov tizimidan proporsional saylov tizimiga o'tishning o'ziga xosliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: saylov tizimi, majoritar, proporsional, aralash, siyosiy partiya, deputatlikka nomzod

Saylov tizimi - bu saylovlar va referendumlar qanday o'tkazilishi va ularning natijalari qanday aniqlanishini belgilaydigan qoidalar to'plami yoki biror mamlakatda amalda bo'luvchi saylov o'tkazish qoidalari yig'indisidir.

Saylov tizimlari siyosiy va siyosiy bo'lmagan sohalarda ishlatiladi. Masalan, hukumatlarni saylash - siyosiy saylovlar, korxonalarda, notijorat tashkilotlar organlarini, rahbarlarini saylash - siyosiy bo'lmagan saylovlar o'tkazilishi mumkin. Ushbu qoidalar ovoz berish jarayonining barcha jihatlarini tartibga soladi: saylovlarda kimlar ovoz berishi mumkin, kim nomzod sifatida ko'rsatilsa bo'ladi, byulletenlar tarqatilishi va ularning hisobi, ovozlarni sanash va natijalarni e'lon qilish, saylovoldi tashviqoti va boshqalar. Siyosiy saylov tizimlari odatda saylov komissiyalari tomonidan o'tkaziladi va Konstitutsiya hamda saylov to'g'risidagi qonunchilik bilan belgilanadi.

Umuman olganda jahon tajribasida uchta saylov tizimi ajratib ko'rsatiladi: majoritar, proporsional va aralash. Majoritar saylov tizimi deganda (frans. majorite — ko'pchilik so'zidan) vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan mutlaq va malakali ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika va boshqalarda.¹ Majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan ko'p ovoz (ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Mamlakatimizda so'ngi bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovi ham aynan shu tizim doirasida tashkil etilgan. Nisbatan ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan o'z raqiblarining har biriga nisbatan ko'p ovoz olgani saylangan hisoblanadi.

Proporsional saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ro'yxati uchun ovoz

¹ Saylov tizimi. <https://uz.wikipedia.org/wiki>

beradi. Bunday tizimda saylovchi nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlarini sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinlar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional saylov tizimi Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha kabi mamlakatlarda qo'llaniladi.

Aralash saylov tizimida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlari bo'ladi. Masalan Germaniyada Bundestagga saylovlar aralash tizim asosida bo'lib o'tadi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim bo'yicha, 2-yarmi esa ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan german yerlari (federatsiya subyektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi.² Ushbu saylov tizimi Italiya, Litva kabi mamlakatlarda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi Konstitutsiya va saylov to'g'risidagi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, Qonunchilik palatasi deputatlarining:

yetmish besh nafari bir mandatli saylov okruglari bo'yicha saylanadi;

yetmish besh nafari yagona saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda partiya ro'yxati asosida saylanadi.³

18.12.2023 yilda qabul qilingan O'RQ-883-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun saylov va referendum to'g'risidagi qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiqlashtirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Unga ko'ra, "Siyosiy partiyalar:

bir mandatli saylov okruglari bo'yicha deputatlikka yetmish besh nafar nomzod, ya'ni har bir saylov okrugini bittadan deputatlikka nomzod ko'rsatishga;

partiya ro'yxati bo'yicha yetmish besh nafardan kam bo'lmagan, yuz nafardan ko'p bo'lmagan deputatlikka nomzod ko'rsatishga vakolatlidir.

Bir mandatli saylov okruglarida ayni bir shaxs faqat bitta saylov okrugini deputatlikka nomzod etib ko'rsatilishi mumkin.

Partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari ushbu ro'yxatga kiritilishi mumkin emas.

Ayni bir nomzod faqat bitta partiya ro'yxatiga kiritilishi mumkin.

Bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'rsatilgan nomzodlar partiya ro'yxatiga kiritilishi mumkin emas.

Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi.

Ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida qirq foizini tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim.

Siyosiy partiyalar o'z partiyasi a'zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko'rsatishga vakolatlidir. Deputatlikka nomzodlar ko'rsatish hamda partiya ro'yxatini shakllantirish to'g'risida bayonnoma tuziladi".⁴

² Saylov tizimi. <https://uz.wikipedia.org/wiki>

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/en/docs/-4386848#-4388887>

⁴ "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun. <https://lex.uz/en/docs/-6697581?ONDATE=19.12.2023%2000#-6702405>

Mamlakatimizda majoritar saylov tizimidan aralash saylov tizimiga o'tilishi siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga, fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishga hamda davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro uzviylikni ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatga ega. Bundan tashqari majoritar saylov tizimida mavjud kamchiliklar, aralash saylov tizimida uchramaydi deyishimiz mumkin. Masalan, majoritar saylov tizimida g'olib bo'lgan fuqarolarning xohishiga ko'ra, vakillik organlari shakllantirilar edi. Buning oqibatida boshqa nomzodlarga ovoz bergan fuqarolarning istaklari amalga oshmasdan, ular vakillik hokimiyatining shakllanishida o'z ovozlari bilan to'la ishtirok etolmasdilar. Endi saylov tizimi aralash tizimga o'tgach, unda proporsional tizim elementlari ham mavjud bo'ladi. Va saylovchilar birgina individual nomzodga emas, balki siyosiy partiyaga ovoz beradilar. Bunday saylov tizimiga o'tilishining yana bir e'tiborli jihati siyosiy partiyalar rolining yanada oshirilishi, fuqarolarning siyosiy partiyalar hayotiga yaqinlashib, o'z siyosiy faolliklarini ko'rsatishlarida ko'rinadi.

Xalqaro miqyosda aralash saylov tizmi boshqa saylov tizimlari bilan bir qatorda qo'llanilib kelmoqda. Masalan, aralash saylov tizimi 1999- va 2003-yilgi RFning Davlat duması deputatlari saylovida ham qo'llanilgan. Bunda Davlat dumasining 450 ta deputatidan 225 tasi bir mandatli saylov okruglaridan majoritar uslubda saylangan bo'lsa, qolgan 225 ta deputat proporsional saylov tizimi asosida saylangan.⁵

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, Qonunchilik palatasi deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etilishining huquqiy asoslari yaratilganligi mamlakatimizda vakillik organlarining shakllanishida yangi jabhalarni ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun. <https://lex.uz/en/docs/-6697581?ONDATE=19.12.2023%2000#-6702405>
3. Saylov tizimi. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
4. Aralash saylov tizimi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aralash_saylov_tizimi#cite_note-1

⁵ Aralash saylov tizimi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aralash_saylov_tizimi#cite_note-1